

Berdiyev Doston Abduvoitovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrası o‘qituvchisi

Baxromova Dilfuza Akramjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

O‘QUVCHILARDA KASBIY VA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ta’lim asrimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omildir. O‘quvchilarda kasbiy va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ularning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishida asos va kelajagimiz poydevori hisoblanadi. Ushbu maqolada shunday fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘nikma, yashash muhiti, motivatsiya, motiv, analitik fikrlash, shaxsiy gigiyena, moliyaviy ma’lumot.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmogda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda¹.

Ta’lim — bu ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatish jarayonidir. Bilamizki, bugungi kunda ta’lim olish xalqaro rivojlanish tizimida taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Bu esa, o‘z navbatida o‘quvchilarda kasbga bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurini kengaytirish, hayotiy ko‘nikmalarini amaliy rivojlantirish imkoniyatini beradi. Yurtimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri - bu har bir yosh avlodni, yetuk, barkamol, o‘z kasbining mutaxassisi qilib tarbiyalashdir. Barkamol yetuk insonning shakllanishi, munosib kasbni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shishi nazarda tutiladi. Kasbiy shakllanish jarayonining o‘ta muhim bosqichlaridan biri bu kasbni tanlashdir. Bu vaziyatda yashash muhiti katta rol o‘ynaydi. Yashash muhiti deyliganda oila, maktabgacha ta’lim va maktab tushiniladi. Kasbni tanlashda ko‘pincha ota-onasi, do‘stlari, o‘rta maktabdagi o‘qituvchilari ta’sir ko‘rsatadi. Bunday jarayonda oldin kasblar bilan tanishib chiqish, istaklarni tizimlashtirish, tanlangan kasblarni amaliyotda sinab ko‘rish, zaxira tanlov, qarorni mustaqil qabul qilish, maqsadga muvofiqdir. Biz shuni bilib olishimiz kerakki oilaviy an‘analarni davom ettirish biz uchun majburiy emas. Ayni shu davrda yoshlar maqsadlarini aniq qo‘yishi va maqsadlari sari dadil qadam tashlashi zarur. Shunday bo‘lsada tashqi omillar sababli ayrim yoshlarda o‘z hayot yo‘lini, o‘z kasbini noto‘g‘ri tanlash kabi holatlar kuzatiladi. Bola o‘z kasbini tanlashda ota-onasining istagi, ko‘p mablag‘ topish maqsadida amalga oshiradi. Ammo buni noto‘g‘ri deb hisoblaymiz. Kasbiy ko‘nikma bolalikdan shakllanadi. Bolalarni kichikligidan kasbga tayyorlash, o‘z qobiliyati, istagini anglab yetishga yordam berish, ularning xohishlarini rad etmaslik va erkin qo‘yish lozim. Ko‘p hollarda ota-onalar qarshiligi sababli kasbga bo‘lgan istak, mehr so‘nib qoladi. Bunday vaziyatda o‘quvchilarda kasbni sevmaslik, uni chuqur

¹ Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan

o'rganish, muvaffaqiyatlarga erishishga urinmaslik hislari uyg'onadi. Bu holda ularga motivatsiya juda zarurdir. Motivlar kishining muayyan maqsad sari intilishida uni harakatga keltiruvchi ichki quvvat manbai hisoblanadi. Biz ota-onalarning, o'qituvchilarning motivlar bo'lishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Inson faoliyati jarayonida motivlar asosiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lib, mazkur faoliyatni amalga oshirish tufayli qondiriladi. Motivatsiya shaxsning barcha hatti-harakatlarini umumiy va yagona maqsad sari yetaklovchi, undovchi, uning barqaror faoliyatini to'la ta'minlovchi shaxs tuzilishidagi muhim jarayondir. Ko'nikma o'z ichiga xulq-atvor, qobiliyat, ichki motivatsiyani ham qamrab oladi. Olimlarning fikricha, ichki motivatsiya ko'nikma rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kasbiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli hayoti va kasbiy faoliyati uchun zarurdir. Quyida kasbiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va ularni rivojlantirish usullari bayon etilgan:

1. Kasbiy ko'nikmalarni amaliy tajriba asosida shakllantirish.

- Amaliyot va tajribalar: Maktab o'quvchilari uchun turli tashkilotlarda amaliyot o'tash imkoniyatlari yaratish. Bu ularga o'z kasbiy sohasidagi real tajribani orttirish imkoniyatini beradi.
- Loyihalar va tadbirlar: Amaliy loyihalar, tadbirlar va musobaqalar tashkil etish orqali o'quvchilarni kasbiy muammolarni hal qilishga jalb etish.

2. Mutaxassislar bilan uchrashuvlar.

- Ma'ruzalar: Turli soha vakillarini maktabga taklif qilib, o'z tajribalari bilan bo'lishishlari uchun imkon yaratish. Bu o'quvchilarga kasb tanlashda yo'l-yo'riq beradi.
- Kasbiy yo'nalishdagi treninglar: Turli treninglar va seminarlar o'tkazish orqali o'quvchilarga kerakli kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish.

3. Texnik ko'nikmalar.

- Raqamli savodxonlik: O'quvchilarga kompyuter va boshqa texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'rgatish. Bu zamonaviy ish bozori talablariga mos keluvchi muhim ko'nikmalardir.
- Texnik asbob-uskunalar bilan ishlash: O'quvchilarni zamonaviy texnika va uskunalar bilan tanishtirish, ulardan foydalanishni o'rgatish.

4. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish.

- Nutq va muloqot ko'nikmalari: O'quvchilarga jamoat oldida nutq so'zlash, muloqot qilish va fikrlarini aniq ifoda etish ko'nikmalarini o'rgatish.
- Jamoada ishlash: Guruh bo'lib ishlash va hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli guruh loyihalari va mashg'ulotlari tashkil etish.

5. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish.

- Analitik fikrlash: O'quvchilarga tahliliy fikrlash va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish. Bu ularga turli muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi.

- Muammolarni hal qilish: Real hayotiy muammolarni hal qilishni o'rgatish uchun maxsus mashg'ulotlar va treninglar o'tkazish.

6. Shaxsiy boshqaruv.

- Vaqtni boshqarish: O'quvchilarga vaqtni samarali boshqarish va rejalashtirish ko'nikmalarini o'rgatish. Bu ularga maktabda va hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

- Stressni boshqarish: Stress va bosimni samarali boshqarish uchun maxsus treninglar va psixologik yordam ko'rsatish.

7. Moliyaviy savodxonlik.

- Byudjet tuzish: O'quvchilarga byudjet tuzish, moliyaviy rejalashtirish va pulni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish.

- Moliyaviy ma'lumotlar: Kreditlar, bank xizmatlari va investitsiyalar haqida bilim berish.

8. Salomatlik va hayot tarzi.

- Sog'lom turmush tarzi: Sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy faoliyat va zararli odatlardan voz kechish haqida ta'lim berish.

- Gigiyena va xavfsizlik: Shaxsiy gigiyena va xavfsizlik qoidalarini o'rgatish.

O'quvchilarda kasbiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish ularni nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga, balki umumiy hayotga ham tayyorlaydi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar o'zlarini turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli boshqarishlari va jamiyatning faol va foydali a'zolari bo'lishlari mumkin.

Yoshlarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirilishi – bu uning yetuk mutaxassis sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi maqsadga yo'naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi va quyidagi tashkil etuvchilardan iboratdir: - shaxsiy sifatarni kamol toptirish; - intellektual rivojlanish; - kasbiy rivojlanish; - jismoniy komillik. Xususan, mutaxassis o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun qator zarur sifatlarga ega bo'lishi kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: - kasbiy masalalarni yechishga ichki motivatsiya; - kasbiy masalalarni yechish jarayonida yuqori natijalarga erishishga intilish; - kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmunini tushunish va metodik asoslarini bilish. ²

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mohiyati, o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni amaliyotda tatbiq etish kabilar bilan belgilanadi. O'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayon, yoshlarga nafaqat kasbiy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham berishga qaratilgan. Kasbiy ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakda ishga joylashish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy hayotda

² Yoshlarda kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish usullari. Abdiyeva Dilfuza Kurbanovna.

muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir. Shuni ta'kidlash kerakki yoshlarning o'z o'rnini topa bilishi, kelgusida taqdiri va Vatanining istiqbollari bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, kasbiy va hayotiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish barchamizning maqsadimiz bo'lishi kerak. Zero, Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
2. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
3. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўғаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // Innovative developments and research in education: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.
4. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. *PEDAGOGS Jurnal*, 31(1), 142–148.
5. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – С. 54-58.
6. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>
7. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
8. Bahromova Dilfuza Akramjonovna Tasviriy san'at darslarida yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. (2024). Yangi O'zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o'rni Va Rivojlanish Omillari, 11(1), 160-164.